

NORIN-QORADARYO ITXBNING TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH PUNKTIDA EKSKOVATORLARGA MAVSUM DAVOMIDA O'TKAZILADIGAN TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHLARNING TANNARXINI HISOBLASH

G'aniyev Otabek Obidjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalar instituti stajiyor o'qituvchisi
ganiyevotabek5@mail.com

Komiljonov Jasurbek O'ktamjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalar instituti stajiyor o'qituvchisi
jkomiljonov444@gmail.com

O'smonova Mohinur Erkinjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalar instituti stajiyor o'qituvchisi

Annotatsiya: *Norin-Qoradaryo ITXB texnik xizmat ko'rsatish punktini tashkil etish hisobiga Andijon viloyati meliorativ mashinalar hududiy texnik xizmat ko'rsatish tizimi takomillashtirildi. Yangi texnik xizmat ko'rsatish punktining xizmat ko'rsatish ob'ektlari eng kamida ofis, servis avtomashinasi, ta'mirlash ustaxonasi, ehtiyot qismlar ombori, texnikalarni vaqtincha saqlash maydonchasi, mexanik, omborchi, 3 nafar ishchidan iborat bo'lishi lozim.*

Kalit so'zlar: *ekskavator, shina, amortizatsiya, servis, materiallar, moylash, texnik servis.*

Abstract: *The territorial maintenance system of reclamation machines of Andijan region was improved due to the establishment of the technical service point of the Norin-Qoradaryo ISBM:*

The service facilities of the new technical service center should consist of at least an office, a service vehicle, a repair shop, a spare parts warehouse, a temporary equipment storage area, a mechanic, a warehouseman, and 3 workers.

Key words: *excavator, tire, amortization, service, materials, lubrication, technical service*

KIRISH

Biz tavsiya etayotgan ishda 6 dona ekskavatorga mavsumda o'tkazilgan texnik xizmat ko'rsatishlarning tannarxini dala sharoitida xarakatdagi shu maqsad uchun xizmat ko'rsatadigan agregat yordamida amalga oshirilishi nazarda tutildi.

Mavsumda ekskavatoriga texnik xizmat ko'rsatish operatorlar, murakkab ishlar usta-sozlovchilar tomonidan ko'chma zveno orqali amalga oshirildi. Shuning uchun

usta-sozlovchilarning maoshi bajarilgan asosiy (TXK) va yordamchi ish vaqti bo'yicha amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asosiy ish vaqti uchun ishbay-mukofotli tizim 4 va 5 toifali operatorlarning tarif stavkasi orqali xaq to'lash tavsiya etildi.

Usta-sozlovchiga servis markazi tomonidan bilan kelishilgan holda ishlab chiqarishning aniq sharoitlari, kombaynlar rusumi, murakkabligi, staji va malakasiga qarab toifasi belgilandi.

Qo'shimcha vaqt Norin-Qoradaryo ITXB TXK punktida qabul qilingan usta-sozlovchining ish vaqtidan foydalanish koeffisienti bo'yicha belgilandi. Amaliy hisoblar uchun bu koeffisient 0,95 ga teng deb qabul qilindi. Ya'ni 7 soatlik ish kuni uchun usta-sozlovchining qo'shimcha vaqti $7 \cdot 0,9 = 0,25$ soat. Qo'shimcha vaqt TXKni amalga oshirish normativiga kiritilmadi. Unga operatorning vaqtinchalik tarif stavkasi hisobi bo'yicha xaq to'landi. Bundan tashqari usta-sozlovchi va operatorning 1 norma-soat ish xaqini belgilovchi rassenka bilan amalga oshirish ham mumkin.[1]

Qo'shimcha ish xaqi asosiy ish xaqiga nisbatan % hisobida o'rnatiladi. Usta-sozlovchilarning qo'shimcha maoshiga 2 toifadagi operatorlarga – 10 %, 1 toifadagi operatorlarga -20%.Ekskovatorlariga TXK ni o'z vaqtida o'tkazganligi uchun – 15 % gacha mukofot, TKX da yonilg'i-moylash materiallarini tejagani uchun – 10 % gacha mukofot, 18 ish kuni hisobidagi mehnat ta'tili uchun asosiy maoshining 6,27 % miqdorida qo'shimcha xaq, ish staji uchun esa barcha turdagi maoshlarining 12 % miqdorida qushimcha maosh belgilandi.

Odatda ekskavatorlarga usta-sozlovchilar va operatorlar birgalikda texnik xizmati ko'rsatiladi. Amaliy hisoblar uchun 50 % texnik xizmat ko'rsatish ishlarini operatorlar bilan o'tkazilishi rejalashtirildi. Dala sharoitida texnik xizmatlarni o'tkazishda operatorlar ishbay tarif stavkalari asosida 2 toifa bo'yicha maosh olishi rejalashtirildi.

Mavsum davrida texnik xizmatlarni o'tkazishda materiallar sarfi (yonilg'i-moylash, tozalash, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar) ekskavator, o'tkaziladigan texnik xizmat turi va ularning ulgurji narxiga nisbatan materiallar sarfi me'yori bo'yicha amalga oshirildi. Bundan tashqari materiallar sarfiga ayrim almashtiriladigan detallar (m: yonilg'i filtri, filtr kassetalari va x.k.z) narxi ham kiradi. Pul mablag'ining asosiy sarfiga yonilg'i-moylash materiallari kiradi. Ularning me'yoriy xujjatlarda belgilangan.

NATIJARLAR

Demak usta-sozlovchining 1 soatlik qo'shimcha vaqt bilan ish xaqi qiymati ikkinchi gurux bo'yicha 7572 so'mni tashkil etadi.

Boshqa turdagi materiallarning narxi amaliy hisoblar uchun asosiy yonilg'i-moylash materiallari sarfining 5 % miqdorida hisoblanadi.[2]

Amortizasiya ajratmasi, joriy ta'mir va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari jixozlar guruxlari bo'yicha aniqlanadi

$$A_{o.s.} = 0,01 B_{ob} \alpha_z$$

$$R_{t.r.} = 0,01 B_{ob} \alpha_{tr} ,$$

bunda B_{ob} – texnik xizmat ko'rsatish punkti jixoz va qurilmalarning balans qiymati; α_z , α_{tr} - texnik xizmat ko'rsatish punkti jixoz va qurilmalariga o'tkaziladigan joriy ta'mir va texnik xizmat ko'rsatishlar xarajati va amortizasiya ajratmasi me'yori, %.

Ekskovatorga texnik xizmat ko'rsatishda sarf bo'ladigan yonilg'i-moylash materiallari sarfi

1-jadval

	Mavsum	Bir kunda bitta	Ekskovato
	davomida bartaraf etilgan nosozliklar soni, dona	xizmat uchun texnik xizmat ko'rsatishga ajratilgan vositaning yonilg'i-moylash materillari sarfi qiymati, so'm	r bo'yicha bir kunlik yonilg'i sarfi, so'm
Jonyang	30	5787,5	1326000

Texnik xizmat ko'rsatish punkti jixoz va qurilmalarini ushlab turish uchun sarflar umumishlab chiqarishdagi ustama xarajatlarga kiradi. Uning qiymatlari loyihalash jarayonida TXK punktida aniqlanadi.

Ekskovatorga texnik xizmat ko'rsatish maxsus harakatdagi ko'chma vosita (Damas) yordamida dala sharoitida amalga oshirilganida texnik xizmatning tannarxi $S_{to} = Z_r + S_m + Z_{AG} + N_n$, so'm, bunda Z_{AG} – texnik xizmat ko'rsatish vositasini saqlashga ketgan xarajat, so'm.

Biz tahlil qilayotgan 6 ta Jonyang ekskavator joylarda texnik xizmati ko'rsatish uchun "Damas" harakatdagi vositasi ajratilgan. "Damas" harakatdagi vositaning ekskavatorga texnik xizmat ko'rsatish uchun mavsumdagi bosib o'tgan yo'li o'rtacha 8000 km ni tashkil etdi. Dastlabki ma'lumotlarga asosan balans qiymati 34571800 so'mni tashkil etadi. Shulardan jixozlar qiymati 5450140 so'mni tashkil etadi.

Amortizatsiya ajratmasi me'yori 15,5 %, avtomobilning joriy remonti va texnik xizmatiga ketadigan xarajat me'yori (1000 km bosib o'tilgan yo'l uchun) 78000 so'm, jixozlarning amortizatsiya ajratmasi me'yori 5,7 %, 100 km bosib o'tilgan yo'l uchun benzin sarfi me'yori 15 l, shinning preyskurant narxi 1250000 so'm, eyilishi balans qiymatining 1,43 % tashkil etsa u holda:

$$A_{o.s.} = 0,01 B_{ob} \alpha_z = 0,01 * 34571800 * 15,5 = 5358629 \text{ so'm}$$

$$R_{t.r.} = 0,01 B_{ob} \alpha_{tr} = 0,01 * 5450140 * 5,7 = 310657,98 \text{ so'm},$$

Avtomobil bazasidagi harakatdagi texnik xizmat ko'rsatuvchi ko'chma vositaning joriy remonti va texnik xizmatiga sarflanadigan mablag':

$$R_{t.r.AG.} = 0,001L \alpha_{tr} = 0,001 * 8000 * 78000 = 624000 \text{ so'm},$$

Ko'chma TXK agregatiga yonilg'i moylash materiallari sarfi 1 litr benzin narxi 6000 so'm bo'lsa:

$$S_t = 0,01 * L * N * S_{yo} = 0,01 * 8000 * 15 * 6000 = 7200000 \text{ so'm},$$

Shinalarni tiklash uchun sarf xarajat

$$S_{sh} = 0,00001 * N_{sh} * M_{sh} * \alpha_{sh} * L = 0,0001 * 1250000 * 1,43 * 8000 = 1430000 \text{ so'm}.$$

Demak TXK ko'chma vosita "Damas"ni soz holda ushlab turish va undan mavsum davomida foydalanish xarajatlari:

$$Z_{AG} = 5358629 + 310657,98 + 624000 + 7200000 + 1430000 = 14923287,98 \text{ so'm}$$

Ekskovatoriga texnik xizmat ko'rsatish maxsus harakatdagi ko'chma vositasi yordamida dala sharoitida amalga oshirilganida usta-sozlovchining maoshi operatorning 5 toifasiga to'g'ri keldi.

Punktning joylashish tarif stavkasining 2 guruxi bo'yicha qabul qilinadigan bo'lsa, ish vaqtidan foydalanish koeffisienti 0,86 ga teng, ekskavatorlarga jami 180 soat sarf qilingan deb qabul qilsak, ya'ni har bir ekskavatorga kunda o'rtacha 1,5 soatdan to'g'ri keladi, u holda usta sozlovchining maoshi quyidagicha bo'ladi.

$$180 * 5787,5 = 1041750 \text{ so'm}$$

Bir oyda 26 kunlik ish kuni bor deb, bir ish kuni davomiyligi 7 soat deb hisoblasak, qo'shimcha vaqt

$$26 * 7 - 26 * 7 * 0,86 = 25,48 \text{ soat bo'ladi}$$

Qo'shimcha vaqt qiymati

$$25,48 * 5787,5 = 147465,5 \text{ so'm}$$

Ish vaqtidan foydalanish koeffisientining korxonaning tabiiy iqlim sharoitiga nisbatan qiymati

2-jadval

Tabiiy iqlim sharoit va Punktdan dalagacha bo'lgan o'rtacha masofa, km	TXK ko'chma agregatlar Damas
--	------------------------------

10 gacha	0,82
10 dan 15 gacha	0,79
15 dan 25 gacha	0,73

Operatorning 4 toifa bo'yicha tarif stavkasi 7600 so'm bo'lsa usta - sozlovchi operatorni o'rnini mashinalarni xaydab u joydan bu joyga, texnik xizmat ko'rsatish joylariga xaydab borgani uchun qo'shimcha maosh belgilanadi. [3]

$$26 * 7600 * 0,38 = 75088 \text{ so'm}$$

Usta-sozlovchining asosiy maoshi quyidagi summalardan iborat bo'ladi

$$1041750 + 147465,5 + 75088 = 1264303,5 \text{ so'm}$$

Iqtisodiy ko'rsatkichlar

3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymati
1	2	3	4
1	Amortizasiya ajratmalari: - harakatdagi TXK vositasi uchun	so'm	5358629
	- jixozlar uchun	so'm	310657,98
1	2	3	4
2	Joriy ta'mir va texnik xizmatga sarflanadigan mablag'	so'm	624000
3	Yonilg'i-moylash va boshqa materiallar sarfi	so'm	12523286,98
4	Foydalanish xarajatlari	so'm	18816573,96
5	Usta-sozlovchilarning asosiy maoshi	so'm	1264303,5
6	Bitta nosoz ekskavatorni tuzatishda texnik xizmat ko'rsatish punktida tejab qolingan mablag' 112400	so'm	112400
7	Ekskovatorni bajargan ishini natijasida olingan daromad	so'm	37076000
8	Qo'shimcha kapital	yil	1,97

qo'yilmalarni qoplash muddati

XULOSALAR

“Norin-Qoradaryo ITXB texnik xizmat ko‘rsatish punktini tashkil etish hisobiga Andijon viloyati meliorativ mashinalar hududiy texnik xizmat ko‘rsatish tizimi takomillashtirildi:

1. Yangi texnik xizmat ko‘rsatish punktining xizmat ko‘rsatish ob'ektlari eng kamida ofis, servis avtomashinasi, ta'mirlash ustaxonasi, ehtiyot qismlar ombori, texnikalarni vaqtincha saqlash maydonchasi, mexanik, omborchi, 3 nafar ishchidan iborat bo‘lishi lozim;

2. “Norin-Qoradaryo ITXB hududida texnik xizmat ko‘rsatish punktining samaradorlik darajasi texnik xizmat ko‘rsatish iste'molchilari olgan samara bilan baholanadi. Bitta nosoz ekskavatorni tuzatishda texnik xizmat ko‘rsatish punktida tejab qolgan mablag‘miqdori–112400 so‘mga qisqargan tuzatish vaqti ichida ekskavator bajargan ish natijasida olingan daromad-37076000 so‘mga teng;

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rustamov R.M., Kabulov M. Zamonaviy qishloq xo‘jalik mashinlariga firmaviy texnik servis ko‘rsatish punktlariga qo‘yiladigan talablar // AGRO ILM. Toshkent, 2012.

2. Fedotov A.V. Organizatsiya dilereskogo obslujivaniya selskoxoz-yaystvennoy texniki //Ekonomika selskogo xozyaystva i pererabativayutshix predpriyatiy. -2004. – №2.

3. Rustamov R.M., Seytimbetova Z. "Firma-diler-fermer" tizimini shakllantirish // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. -2009.